

Tabiatdagi hamma narsa bir-biriga bog'liq



Menimcha, tabiatdagi hamma narsa bir-biriga bog'liq: jonli tabiat jonsiz tabiatsiz yashay olmaydi.



Jonsiz tabiat jonli tabiatning hayotini qo'llab-quvvatlaydi.


1. **Quyosh** yorug'lik va issiqlik manbaidir. O'simliklar yilning faqat issiq fasllarida o'sib, gullab, meva beradi. Quyosh nuri tufayli o'simliklarning bargida ozuqa moddalar hosil bo'ladi. Hayvonlar quyosh nuri yordamida atrofni ko'radi. Demak, ular ov qilish yoki yirtqich hayvonlardan qochib ketishi uchun yorug'lik kerak.
2. O'simliklarga ham, hayvonlarga ham, insonga ham **suv** kerak. O'simliklarning bargida hosil bo'lgan ozuqa moddalar suv yordamida ularning boshqa a'zolariga yetib boradi. Hayvonlarda hosil bo'lgan ozuqa moddalar qon orqali butun tanaga tarqaladi. Qon esa asosan suvdan iborat. Suv bo'lmasa, har qanday jonli narsa halok bo'ladi.
3. Barcha jonli organizmlar nafas olishi uchun esa **havo** kerak.




Inson jonli tabiat vakilidir. Sizga quyosh, tog'lar, suv, havo, toshlar kerakmi? Ular sizga nima uchun kerak?



Jonli va jonsiz tabiat bir-biri bilan qanchalik bog'liq?



Jonli tabiatdagi narsalar bir-biriga qanday bog'liq?



Xulosa: barcha jonzotlarga ozuqa, issiqlik, suv va havo kerak ekan.



Har bir qatorda nima ortiqcha ekanini toping. Sababini tushuntirib bering.



Xonaki o'simliklarni kuzating. Ayting-chi, agar ularga Quyosh nuri, suv yoki issiqlik yetmasa nima bo'ladi?



Insonning hayoti uchun jonli va jonsiz tabiatdagi nimalar kerakligini yozing.